

## YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASIDA URF- ODAT, AN‘ANA VA QADRIYATLARGA EHTIYOJNING OSHIB BORISHI

*Yusupaliyev Orzumurod Odilovich, Guliston davlat Pedagogika  
instituti, Ijtimoiy-Gumanitar fanlar fakulteti “Milliy g‘oya va  
falsafa” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

## THE GROWING NEED FOR CUSTOMS, TRADITIONS AND VALUES IN THE NEW UZBEKISTAN STRATEGY

*Yusupaliyev Orzumurod Odilovich, Gulistan State Pedagogical  
Institute, Faculty of Social and Humanitarian Sciences Senior  
Lecturer, Department of “National Idea and Philosophy”*

## РАСТУЩАЯ ПОТРЕБНОСТЬ В ОБЫЧАЯХ, ТРАДИЦИЯХ И ЦЕННОСТЯХ В СТРАТЕГИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

*Юсупалиев Орзумурод Одилевич, старший преподаватель  
кафедры «Национальная идея и философия» факультета  
социальных и гуманитарных наук Гулистанского  
государственного педагогического института*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida milliy urf-odat, an‘ana va qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borish sabablari, bu jarayonning ijtimoiy-madaniy ahamiyati va davlat siyosatidagi ifodasi ilmiy tahlil qilinadi. Muallif qadriyatlarning ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, madaniy identitetni mustahkamlash va yosh avlodni tarbiyalashdagi roliga alohida e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, urf-odat, an‘ana, qadriyatlar, madaniy identitet, ijtimoiy barqarorlik, strategiya, milliy meros, globallashuv, ma‘naviy tiklanish.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the reasons for the growing need for national customs, traditions and values within the framework of the New Uzbekistan Development Strategy, the socio-cultural significance of this process and its expression in state policy. The author pays special attention to the role of values in ensuring social stability, strengthening cultural identity and educating the younger generation.

**Keywords:** New Uzbekistan, customs, traditions, values, cultural identity, social stability, strategy, national heritage, globalization, spiritual revival.

**Аннотация:** В статье научно анализируются причины роста потребности в национальных обычаях, традициях и ценностях в рамках стратегии развития Нового Узбекистана, социально-культурное значение этого процесса и его выражение в государственной политике. Особое внимание автор уделяет роли ценностей в обеспечении социальной стабильности, укреплении культурной идентичности, воспитании подрастающего поколения.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, обычаи, традиции, ценности, культурная идентичность, социальная стабильность, стратегия, национальное наследие, глобализация, духовное возрождение.



<https://orcid.org/0009-0003-4600-2984>

e-mail:  
[yusufalievorzumurod@gmail.com](mailto:yusufalievorzumurod@gmail.com)

**KIRISH.** Yangi O‘zbekiston davrida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda, milliy qadriyatlar, urf-odat va an‘analarni tiklash, ularni jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylantirish borasida tub burilishlar yuz bermoqda. Har qanday jamiyatning mustahkamligi, eng avvalo, uning madaniy ildizlariga, tarixiy merosiga va ma‘naviy qadriyatlariga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida milliy o‘zlikni anglash va asrash, urf-odat va an‘analarni zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada aynan shu ehtiyojning sabab va oqibatlari, uni kuchaytiruvchi omillar hamda ijtimoiy jarayonlarga ta’siri tahlil qilinadi.

Ma’lumki, har bir individ shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat u yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta’siri ostida bo‘lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to‘plangan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta’siri ostida ham shakllanadi. Bunda ayniqsa, har bir xalqqa mos bo‘lgan milliy urf-odat va an‘analar roli beqiyosdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Milliy qadriyatlar, an‘analar va urf-odatlarining ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni to‘g‘risida ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan. O‘zbekistonlik olimlar (Qurbonov A., To‘raqulov Z., Karimov N.) o‘z asarlarida qadriyatlar ijtimoiy integratsiyaning markaziy komponenti ekanligini ta’kidlashgan[1]. Shu bilan birga, G.Hofstede va E.Durkheim kabi sotsiologlar madaniy normalarning jamiyatdagi funksional rolga urg‘u berishgan[2][3].

Milliy urf-odat va an‘analarda butun bir xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, axloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o‘ziga xos tarzda mujassam bo‘ladi. Ular xalqning faoliyati jarayonida tug‘iladi. Har bir xalq tarix davomida yashash sharoitining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning ma’lum norma va

yo‘l-yo‘riqlarini yaratadi. Bu norma va yo‘l-yo‘riqlar avloddan-avlodga o‘tib, urf-odat va an‘analarga aylanadi.

**MUHOKAMA.** Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida (2022–2026 yillar) milliy o‘zlikni mustahkamlash, tarixiy xotirani tiklash, madaniyat va qadriyatlarni saqlash muhim yo‘nalish sifatida belgilangan[4]. Shu asosda, urf-odatlar, an‘anaviy bayramlar (Navro‘z, Mehrjon), milliy liboslar, milliy hunarmandchilik turlari va oilaviy qadriyatlar davlat siyosatida ustuvor o‘rin egallamoqda. Misol uchun, “Oila – jamiyat tayanchi” konsepsiyasi doirasida oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga doir 20 dan ortiq hukumat qarorlari qabul qilindi[5]. Yoshlar orasida milliy madaniyat va tarixni o‘rganishga qiziqishning ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu esa jamiyatda identitet muammolarining yechimiga xizmat qilmoqda.

Qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj faqat nostalgik motivlar bilan emas, balki globalizatsiya va raqamli madaniyatning salbiy oqibatlariga qarshi immunitet sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Internet madaniyati fonida o‘zlikni saqlab qolish milliy an‘analar orqali amalga oshirilmoqda.

Shakllangan urf-odat va an‘analar shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida uning xulq-atvorini belgilovchi, boshqaruvchi va shakllantiruvchi vazifani bajaradi. Agar biz har qanday urf-odat, an‘ana, udum yoki marosimning kelib chiqish sabablarini o‘rganmasdan turib baho bersak, ular bir qarashda bemani yoki behuda bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Aslida esa ularning barchasi xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan va ularning ma’lum ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, odat va an‘analar xalq hayotiga ongli ravishda kirib keladi, biroq ularning ta’siri esa stixiyalidir. Shu bilan birga, ayrim urf-odat va an‘analar o‘z umrini o‘tab bo‘lgan bo‘lsa-da, yashovchanlik xususiyati tufayli uzoq vaqt saqlanib, odamlar ongiga ta’sir qilib turadi. Bu holat inson psixologiyasi bilan bog‘liq. Chunki mustahkamlangan urf-odat va an‘analarga amal qilmaslik ko‘pchilik tomonidan qoralanadi.

Atrofdagilarning tanbehidan qo'rqish, jamiyat a'zolari urf-odatlariga ongli yoki ko'r-ko'rona amal qilishga majbur bo'ladi.

Urf-odat va an'analar ko'pincha sinonim so'zlar sifatida ishlatilsa-da, bu terminlar orasida terminologik va ma'no jihatdan farq mavjud. Urf-odatlar, asosan, oilaviy va maishiy sohalar bilan bog'liq bo'lib, ularda axloqiy, diniy va huquqiy normalar o'z aksini topadi.

An'analar esa ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjud bo'lib, ular kelib chiqish jarayonini ham o'z ichiga oladi. An'anada kishilarning narsa va buyumlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. Ma'lumki, san'at va adabiyotda, armiyada, oliy o'quv yurtlarida, sport va ishlab chiqarish jamoalarida urf-odat bo'lmaydi, balki an'analar mavjud bo'ladi. Masalan, armiyaga yangi borgan askarning qasamyod qabul qilishi, oliy o'quv yurtiga kirgan talabani rasmiy kutib olish, sport musobaqalarida g'olib sportchining sharafiga mamlakat bayrog'i ko'tarilishi va madhiyaning yangrashi — bular an'analar hisoblanadi.

Shuningdek, an'analar ta'sir doirasi kengroq bo'lib, bir an'ana bir nechta urf-odat, udum va marosimlarni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, xalqimizda mavjud bo'lgan mehmondo'stlik an'anasini olaylik. Mehmondo'stlik deyarli har bir xalq va millatga xos bo'lsa-da, u ijtimoiy-tarixiy sharoitlar ta'sirida, oilaviy-maishiy hayotdagi munosabatlar natijasida o'zbek xalqiga xos bo'lgan tarzda namoyon bo'ladi. Bu esa milliy xususiyat va an'anaga aylanadi.

**NATIJALAR.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarining ijtimoiy hayotdagi o'zni sezilarli darajada mustahkamlanmoqda. Bu holat bir nechta omillar bilan izohlanadi. Avvalo, global axborot makonining kengayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va chet el madaniyatlarining ommaviy axborot vositalari orqali keng tarqalishi sharoitida milliy o'zlikni asrash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu kontekstdagi ehtiyoj ijtimoiy ongda milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatni tiklash, urf-

odat va an'analarni zamonaviy hayotga uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Yoshlar orasida milliy kiyimlarga, qadimiy bayramlarga, xalq og'zaki ijodiga va otabobolarimizning axloqiy-etik me'yorlariga qiziqishning ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat esa davlat siyosatida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, "Ma'naviyat — jamiyat tayanchi" tamoyili asosida olib borilayotgan madaniyat siyosati doirasida ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va jamoat tashkilotlari orqali qadriyatlarni ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda, insonlar orasida birdamlik, bag'rikenglik va hamjihatlikni shakllantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, ularning huquqiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarida ham ijobiy aks-sado berayotgani aniqlanmoqda. Masalan, oilaviy qadriyatlar asosida barpo etilayotgan ijtimoiy institutlar, mahalla tizimining kuchaytirilishi, milliy bayramlarning davlat darajasida nishonlanishi, qadimiy urf-odatlariga zamonaviy yondashuvlar — ularning barchasi jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, qadriyatlarning bugungi kunda strategik resurs sifatida qaralayotgani e'tiborga molikdir. Ular inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va barqaror taraqqiyotga erishish yo'lida g'oyaviy-madaniy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Yangi O'zbekistonni bunyod etishda ishtirok etayotgan barcha ijtimoiy qatlamlar — yoshlar, ziyolilar, tadbirkorlar, davlat xizmatchilari va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan qadriyatlarga bo'lgan yondashuvning yangilanishi kuzatilmoqda.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlar asosida Yangi O'zbekiston strategiyasida qadriyatlar faqatgina meros sifatida emas, balki zamonaviy jamiyatni barpo etishdagi muhim g'oyaviy va ma'naviy omil sifatida qaralayotgani aniqlandi. Bu esa o'z navbatida mamlakat taraqqiyoti, milliy birligimiz va ijtimoiy

barqarorligimizning kafolati sifatida qadriyatlarni o'rganish va ularni hayotga tatbiq etish zaruratini kuchaytirmoqda.

**XULOSA.** Yangi O'zbekiston sharoitida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarga bo'lgan ehtiyoj ijtimoiy ong va ma'naviyat darajasining o'sishi, global madaniy bosimlarga qarshi himoya refleksi va ijtimoiy birdamlik vositasi sifatida kuchayib bormoqda. Ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlash, ilmiy asoslangan siyosatni davom ettirish va yosh avlodga milliy o'zlikni singdirish zamonaviy taraqqiyotning zaruriy omilidir. Kelgusida ham qadriyatlarni rivojlantirish orqali Yangi O'zbekistonning mustahkam ma'naviy poydevorini qurish mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qurbonov A. Milliy qadriyatlar va zamonaviy jamiyat. Toshkent, 2019.
2. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations, Sage Publications, 2001.
3. Durkheim E. The Elementary Forms of Religious Life, Oxford University Press, 2008.
4. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
5. Oila – jamiyat tayanchi konsepsiyasi asosida amalga oshirilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobot, 2023. Vazirlar Mahkamasi.

